

**Ta'lim, sog'liqni saqlash va sport tizimini barqaror rivojlantirishni
ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.12.2025-yildagi
PQ-398-son**

Qarorga ko'ra, ijtimoiy soha obyektlarini qurish va ta'mirlashni moliyalashtirish maqsadida Ijtimoiy soha muassasalarini qurish va ta'mirlash jamg'armasi tashkil etiladi.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

umumta'lim maktablari, tibbiyot va sport muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

ta'lim, tibbiyot va sport muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy jihozlar, o'quv va tibbiy anjomlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash;

boshqa ijtimoiy yo'nalishlardagi qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.